

DAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI KASBIY SERTIFIKATLASH BO'YICHA PEDAGOGIK MAHORAT YO'NALISHIDAN NAZORAT SINOVİ TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan fan o'qituvchilari o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida bayon qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi.

Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Shunday ekan, barkamol avlodni yetishtirish uchun bugungi kunning pedagoglari ham o'z faoliyatlarini ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Pedagog kadrlarning pedagogik mahoratini belgilab beradigan sinov jarayonlari ham aynan mana shu maqsadda tashkil etiladi. Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi pedagog xodimlarning pedagogik mahoratidan bilim darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan test variantlari strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasida **qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar** kiritilishi mumkin.

I. O'qituvchining pedagogik mahoratini bilishni baholash uchun test sinovi turlari.

Pedagogik mahoratdan mutaxassis o'qituvchilarning ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholashga mo'ljallangan topshiriqlardan iborat.

II. O'qituvchilarning pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarini baholash uchun test sinovlari bilan qamrab olingan maydonning mazmun sohalari.

O'qituvchilarning pedagogik mahorati bo'yicha bilimini baholashda test topshiriqlari quyidagi pedagogik mahorat tarkibiy qismlaridan qamrab olinadi:

1. Pedagogik odob
2. Pedagogik qobiliyat
3. Pedagogik muloqot madaniyati va nutq texnikasi
4. Pedagogik refleksiya
5. Kommunikativ ta'sir ko'rsatish
6. Pedagogik takt (nazokat)
7. Pedagogik texnika
8. Pedagogik ijodkorlik
9. Pedagogik tajriba
10. Pedagogik madaniyat

III. Pedagogik mahoratdan test sinovi asosida o'qituvchilarning bilimini baholashning tayyorgarlik talablari.

Test sinovlari yordamida o'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarni baholashda quyidagi aqliy faoliyat turlari baholanadi:

Tahlil qilish va mulohaza yuritish.

IV. O'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha kasbiy sertifikatdan o'tkazishda bilimlarni baholash uchun ishlatiladigan test turlari:

Pedagogik mahorat bo'yicha o'qituvchilarni kasbiy sertifikatlashdan o'tkazish topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo'lishi mumkin:

Y 1 – bir nechta javobli yopiq test;

Y 2 – moslikni tanlashga oid yopiq test;

Y 3 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test.

***Eslatma:** texnik imkoniyatlar tufayli testning ayrim turlari o'zgarishi mumkin.*

V. O'qituvchilar uchun pedagogik mahoratdan testlar spetsifikatsiyasi.

Mazmun soha	Bo'lim	Topshiriqlar soni	ball
Pedagogik odob. O'qituvchining o'ziga, kasbiga, jamiyatga, o'quvchilarga va ta'lim jarayonining boshqa	Dilrashlik pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri. O'qituvchining xushmuomalaligi va dilrashligi	1	2

ishtirokchilari bilan munosabatda bo'lishga qo'yiladigan axloqiy talablar.	global insonparvarlik jarayoni.		
Pedagogik qobiliyat. Pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlash xususiyatlari.	Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi. O'qituvchi intellektiga tavsifnoma. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatleri va xususiyatlari.	1	2
Pedagogik muloqot madaniyati va nutq texnikasi. Pedagogning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbatlari. Nutq tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmui.	Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. Notiqlik san'atining paydo bo'lish tarixi. Sharq mutafakkirlari notiqlik san'ati haqida. Nutqning asosiy xususiyatlari. Til va nutq. O'qituvchining nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Nutq texnikasini egallash. Tovush, diapazon, tembr, diksiya, ritmika.	1	2
Pedagogik refleksiya. O'quvchilarning o'z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan, ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan nazariy faoliyat.	Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat. O'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati. Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari. O'qituvchi faoliyatini pedagogik tashxislash.	1	2
Kommunikativ ta'sir ko'rsatish. O'quvchilar bilan muloqotda bo'lish, ularga to'g'ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, ifodaviy va emotsional ta'sir etish.	O'qituvchi shaxsining fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari. O'quvchini ishontrish. O'quvchi ongiga ta'sir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish - kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish. Pedagogik nizolarni hal qilish.	1	2

Pedagogik takt (nazokat). Pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda xulq-atvor qoidalariga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashishda malakalarga ega bo'lishi.	Pedagogik nazokat haqida tushuncha. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyatlari. Pedagogik nazokatni egallash malakalari. O'qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.	1	2
Pedagogik texnika. O'qituvchi va o'quvchilar jamoasiga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarining o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilganligi va ularni amalda qo'llay olishi.	Pedagogik texnika haqida ma'lumot. Pedagogik texnika komponentlari. Pedagogik texnika xususiyatlari. Pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi. Pedagogik texnika tizimidagi mimik, pantomimik holatlar. Pedagogik texnikani egallash mahorati.	1	2
Pedagogik ijodkorlik. O'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishdagi yaratuvchanligi.	Ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish. Ta'lim jarayoniga o'qituvchining kreativ yondoshuvi.	1	2
Pedagogik tajriba. Kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida o'qituvchi tomonidan orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.	Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyati. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi kasbiy omilkorligi. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi. Didaktik qonuniyatlar. Blum taksonomiyasi darajalari.	1	2
Pedagogik madaniyat. O'qituvchining kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o'zlashtirganligi, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika va madaniyatni namoyon qila olishining yuqori darajasi.	O'qituvchining "axborot madaniyati" tushunchasini o'zlashtirishi. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi.	1	2
Jami		10	20

Eslatma: yuqoridagi ko'rsatkichlar (testlar soni, qaror qabul qilish vaqti, ball, qiyinlik darajasi) sinov natijalariga qarab o'zgarishi mumkin.

O'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarni baholash uchun test

sinovlari qismlari bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar.

№	Test sinovlari qismlari	Qamralgan mazmun sohalari	Topshiriqlar soni	Ajratilgan ball	Baholanadigan aqliy faoliyat
II.	O'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarini baholash	I – X	10	20 ball	Tahlil va mulohaza

VI. O'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarini baholash uchun test tizimining topshiriqlarini baholash mezonlari:

Har bir sinov test turiga qarab turli xil baholash mezonlariga ko'ra baholanadi:

- agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball;
- agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

VII. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" darslik, Toshkent-2011, "Iqtisod-moliya" nashriyoti.
2. A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" o'quv qo'llanma, Toshkent-2010, "Iqtisod-moliya" nashriyoti.
3. M.X.Toxtaxodjayeva, "Pedagogik mahorat" darslik, Toshkent-2010.
4. A.Q.Munavvarov "Pedagogika" o'quv qo'llanma Toshkent-1996, O'qituvchi nashriyoti.
5. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, D.I.Ro'ziyeva, M.H.Usmonboyeva. "Pedagogika" nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik, Toshkent-2016, Nizomiy nomidagi TDPU.
6. Aliqulova M.M., "Innovatsion pedagogika" uslubiy qo'llanma, Toshkent-2012, Iqtisodiyot universiteti – TDIU nashriyoti.
7. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev, "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv-metodik qo'llanma, Toshkent-2015, "Sano-standart" MCHJ bosmaxonasi.
8. N.Maxmudov, "O'qituvchi nutq madaniyati" darslik, Toshkent-2007, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
9. F.O.Mirzaeva "Pedagogika nazariyasi va tarixi" darslik, Toshkent-2023, "Innovatsion rivojlanish" nashriyoti.